Pedagogik jarayonga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish muammolari

G‘ulamova Durdona
Qo‘qon davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta’lim vositalarining pedagogik jarayonga ta’siri’ ularning samaradorligini oshirishdagi roli, shuningdek, zamonaviy o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qulayliklari tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalarning ta’im jarayonidagi integratsiyasi ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, pedagogika, ta’lim texnologiyalari, elektron resurslar, interaktiv talim

O‘zbekistonimizda yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda kelajak avlodlarimizni ma’naviy boy, axloqan yetuk, inttelektual rivojlangan, yuqori bilimli va har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4884-son 2020-yil 7-yanvardagi qarori va “ O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF- 6108- son 2020-yil 7-noyabrdagi tasdiqlangan farmonlari mazmuni ham O‘zbekistonda ta’lim sohasini kompleks rivojlantirishning ustuvor jihatlarini belgilab bergani bilan ahamiyatlidir.

Raqamli ta’lim bugungi kunda ta’lim sohasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Uning asosiy maqsadi – bilim olishni soddalashtirish, o‘qitish jarayonini individuallashtirish va o‘quvchilar faol ishtirokini ta’minlashdir. Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilinsa, o‘quvchilar bilimini 30-40 foizga oshirish mumkin.

Pedagogika sohasi olimlaridan M.Prenskiy (2001) raqamli texnologiyalar ta’limning shakli, mazmuni va usullarini tubdan o‘zgartirishini ta’kidlaydi. U raqamli avlod uchun an’anaviy usullar emas, balki interaktiv, multimediya asosidagi yondashuvlar samarali bo‘lishini asoslab bergan. Shuningdek, L.Harasim (2012) onlayn ta’lim pedagogikasi haqida gapirib, virtual muhitda talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqot o‘quv natijalarini sezilarli darajada oshirishini qayd etgan.

O‘zbekiston tajribasiga murojaat qilsak, so‘ngi yillarda ta’lim raqamlashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanganligini guvohi bo‘lamiz. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 2-iyundagi PQ-4721-sonli qarorida Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida barcha ta’lim bosqichlarini

raqamlashtirish, electron platformalarni keng joriy qilish o‘qituvchilarning AKT kompetensiyalarini oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Bundan tashqari, 2021-yil 5-maydagi PQ-5117-sonli qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini raqamli transformatsiya qilish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda pedagoglar uchun raqamli resurslar, “Elektron kundalik”, “

Raqamli texnologiyalarni pedagogik jarayonga muvafaqqiyatli integratsiya qilish uchun quyidagilar zarur:

- O‘qituvchilarning raqamli kompentensiyasini oshirish;
- Texnik jihozlar va internet infratuzilmasini yaxshilash;
- Metodik qo‘llab-quvvatlovchi resurslar bilan ta’minlash;
- O‘quvchilarni texnologiyadan maqsadli foydalanishga yo‘naltirish.

Shuningdek, adabiyotlarda raqamli texnologiyalarni noto‘g‘ri yoki faqatgina ko‘rgazmali vosita sifatida ishlatish salbiy natijalarga olib kelishi mumkinligi ham ta’kidlanadi. Shuning uchun ularni tizimli va pedagogik maqsadlarga mos tarzda integratsiya qilish zarur.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – bu raqamli texnologiyalarni pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilishdir. Mazkur integratsiya o‘qitish jarayonini interaktiv, innovatsion va zamonaviy talablarga mos tarzda tashkil etish imkonini beradi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular pedagogik amaliyotda sezilarli to‘siqlar tug‘dirmoqda.

Birinchi navbatda, infratuzilmaviy cheklovlar raqamli texnologiyalarni qo‘llashda asosiy muammolardan biri sifatida qaraladi. Respublika bo‘yicha barcha hududlarda internet tarmog‘ining barqarorligi, tezligi va qamrovi bir xil emas. Chekka hududlarda joylashgan ta’lim muassasalari internetga ulangan bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi past tezlikda ishlaydi yoki vaqti-vaqti bilan uzilib turadi. Bu esa masofaviy ta’lim, onlayn platformalardan foydalanish, zamonaviy ta’lim vositalarini sinfda to‘liq joriy etish imoniyatini cheklaydi. Shuningdek kompyuterlar, planshetlar, proyektorlar, interaktiv doskalar kabi qurilmalar yetishmasligi ko‘plab muassalarda raqamli vositalardan keng foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ikkinchi muhim masala – bu o‘qituvchilarning raqamli kompentensiya darajasidi. Bugungi kunda ko‘plab o‘qituvchilar texnologik vositalarni qanday ishlatishni texnik jihatdan bilsalar-da, ularni dars jarayoniga pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri integratsiya qilish, ya’ni interaktiv metodlar, raqamli baholash usullari, onlayn kommunikatsiya, ta’lim platformalaridan maqsadli foydalanish kabi jihatlar yetarlicha rivojlanmagan. O‘quvchilar orasida ham raqamli savodxonlik darajasi bir xil emas. Bu ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida, shuninhdek, oily ta’limda turlicha namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, o‘quv materiallarning raqamli formatga mos emasligi ham dolzarb muammo hisoblanadi. Aksariyat o‘quv resurslari va darsliklar raqamli fotmatda mavjud emas yoki mavjud bo‘lganlar esa xalqaro yoki boshqa davlat kontekstiga moslashtirilgan bo‘lib, O‘zbekiston ta’lim tizimi va madaniy ijtimoiy

muhitiga to‘liq mos kelmaydi. Bu holat o‘quvchilardan o‘zlari uchun qo‘shimcha yuk – ya’ni yangi raqamli konteny ishlab chiqishni talab qiladi.

Bu muammolarni hal etish uchun bir qator yechimlar taklif qilinmoqda. Avvalo, ta’lim muassalarining texnik bazasini mustahkamlash, internet infratuzilmasi kengaytirish va barcha hududlarda bir xil darajada raqamli imkoniyatlar yaratish zarur. Ikkinchi bosqichda, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlari yo‘lga qo‘yilishi lozim. Bu nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki raqamli pedagogik yondashuvlarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim vositalarini qo‘llash o‘quv jarayonini faollashtiribgina qolmay, balki o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Ayniqsa, interaktiv platformalarning joriy etilishi (Zoom, Moodle, Google Classroom) orqali o’quvchilar mustaqil ishlashga, muammoli vaziyatlarda yechim topishga, mustaqil fikrlashga o‘rganmoqda. Harasim (2012) ta’kidlaganidek, onlayn ta’lim faqatgina texnologik vosita emas, balki o‘rganishning yangi madaniyati hisoblanadi.

Bundan tashqari, raqamli ta’limga to‘liq o‘tish pedagogning didaktik yondashuvini ham tubdan o‘zartirishni talab qiladi. Dars mazmuni, metodikasi, nazorat shakllari zamonaviy sharoitga moslashtirilishi lozim. Aks holda, texnologik vositalar mavjud bo‘lsa ham, ular samara bermaydi.

Raqamli ta’limning samaradorligi o‘qituvchilarning raqamli kompentensiyalariga, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va texnologik vositalardan to‘g‘ri foydalanish malakasiga bevosita bog‘liq. O‘zbekistonda bu borada qator ijobiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, hali yechimini kutayotgan muamolar mavjud.

Shuni aytish mumkinki, raqamli ta’lim bu – vaqtinchalik tendensiya emas, balki ta’limning strategik yo‘nalishidir. Uni to‘g‘ri va puxta joriy etish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi global raqobatga bardoshli, zamonaviy inklyuziv tizimga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-4699-son, “**Raqamli ta’limni** rivojlantirish **chora-tadbirlari to‘g‘risida**”, 2020-yil 28-aprel.

2.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “**Raqamli ta’lim” milliy konsepsiyasi** (2021).

3.Jo‘rayev M. **Raqamli ta’lim muammolari va ularni hal etish yo‘llari //** Pedagogika innovatsiyalar imiy-amaly jurnali, 2022.

4.Z.F.Sharipova “Ta’lim texnologiyalari” Toshkent -2019.

5.R.I.Ishmuhammedov “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”, Toshkent-2004.

6.Harasim L.**Learning Theory and Online Technologyies**. – Paris: OECD Publishing, 2021.